

Amaliy tadqiqotlar tanlovi mavzusi

“Veterinariya va chorvachilik” yo‘nalishi

Loyiha mavzusi	Loyiha bajarilishidan kutilayotgan natija
Chorva hayvonlari va parrandalarning o‘ta yuqumli kasalliklarini tashxislash uchun yangi avlod PSR - tezkor tashxis qo‘yish to‘plamlarini yaratish 	Tadqiqot shakli: Amaliy. Ilmiy tadqiqot natijalari: -tuberkulëz (<i>Mycobacterium spp.</i> DNKsi), leptospiroz (<i>DNK Pathogenic Leptospira spp.</i>), kampilobakterioz (<i>DNK Campylobacter spp.</i>) va boshqa kasalliklarini polimeraza zanjiri reaksiyasi (PSR) va boshqa molekulyar usullar uchun tezkor testlar va reagentlar to‘plamlari yaratiladi; -ushbu PZR usuli uchun yaratiladigan tezkor testlar va reagentlar to‘plamlari DNKsini aniqlash real vaqtda gibrizatsiya-flyuorestsent usuli yordamida amalga oshiriladi; -parrandalarning marek (<i>DNK MDV</i>), yuqori patogenli gripp A va uning subtiplarini (<i>RNK A/N5, A/N7, A/N9</i>) hamda boshqa kasalliklarni polimeraza zanjirli reaksiyasi (PSR), boshqa molekulyar usullar uchun tezkor testlar va reagentlar to‘plamlari yaratiladi. -ushbu PSR usuli uchun yaratiladigan tezkor testlar va reagentlar to‘plamlari viruslarning DNK va RNKsini aniqlanishi real vaqtda gibrizatsiya-flyuorestsent usuli yordamida amalga oshiriladi. -xorijiy transferlash biotexnologiyalari asosida chorva hayvonlari va parrandalarning o‘ta xavfli kasalliklarini aniqlash uchun zamonaviy molekulyar mahalliyashtirilgan PZR va boshqa tezkor testlarni ishlab chiqarish va nazorat qilish uchun normativ-texnik hujjatlar (Ishlab chiqarish reglamentlari, Tashkilot standartlari, qo‘llash yo‘riqnomalari va boshqa ishlab chiqarishga oid SOPlar (standart operatsion protseduralari) ishlab chiqiladi va tegishli tartibda tasdiqlanadi. Natijalarni sinovdan o‘tkazish. Tadqiqot natijalari Qishloq xo‘jaligi vazirligi tizim tashkilotlarida sinovlardan o‘tkaziladi va ularning amaliyotda foydalanish uchun qabul qilinganligi to‘g‘risida Qishloq xo‘jaligi vazirligi xulosasi olinadi. Ilmiy natijalarni chop etish. Tadqiqot natijalariga intellektual mulk obyektlari uchun tegishli hujjatlar olinadi. Nufuzli ilmiy jurnallarda, jumladan <i>Scopus / Web of Science</i> ma’lumotlar bazasida indekslanadigan jurnallarda ilmiy maqolalar chop etiladi. Izoh. Ushbu mavzuga taqdim etiladigan ilmiy loyihalar Qishloq xo‘jaligi vazirligining qo‘llab-quvvatlash xati mavjud bo‘lganida qabul qilinadi.